



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



# TAYM MENEJMENT ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA LIDERLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH

Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida samarali vaqt boshqaruvi orqali liderlik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili, qiyosiy-tahliliy, tizimli hamda kompetensiyaviy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Natijada taym menejment texnologiyalarining bo'lajak o'qituvchilarda mas'uliyat, tashabbuskorlik, strategik rejalashtirish, kommunikativlik va jamoani boshqarish kabi liderlik fazilatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslandi. Shuningdek, samarali vaqt taqsimoti pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda kasbiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil ekanligi aniqlandi. Tadqiqot yakunida taym menejmentga asoslangan liderlikni rivojlantirish modeli pedagogik ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi to'g'risida xulosa qilindi.

**Kalit so'zlar:** taym menejment, liderlik, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiya, vaqtni boshqarish, pedagogik faoliyat, kommunikativlik, strategik rejalashtirish, kasbiy rivojlanish, refleksiya, motivatsiya, ta'lim sifati.

**Abstract:** The pedagogical foundations of developing leadership qualities in future teachers based on time management are analyzed. The purpose of the research is to determine the possibilities of forming leadership competencies among future teachers through effective time management. During the study, methods such as the analysis of pedagogical and psychological literature, comparative-analytical, systematic, and competency-based approaches were applied. The results substantiated the importance of time management technologies in developing leadership qualities such as responsibility, initiative, strategic planning, communication skills, and team management among future teachers. It was also determined that effective time allocation is an important factor in improving pedagogical efficiency and ensuring professional development. The study concludes that a leadership development model based on time management contributes to improving the quality of teacher education.

**Key words:** time management, leadership, future teacher, competence, time management skills, pedagogical activity, communication skills, strategic planning, professional development, reflection, motivation, quality of education.

**Аннотация:** Рассматриваются педагогические основы развития лидерских качеств у будущих учителей на основе тайм-менеджмента. Цель исследования заключается в определении возможностей формирования лидерских компетенций будущих педагогов посредством эффективного управления временем. В ходе исследования использовались методы анализа педагогической и психологической литературы, сравнительно-аналитический, системный и компетентностный подходы. В результате обоснована роль технологий тайм-менеджмента в развитии у будущих учителей таких лидерских качеств, как ответственность, инициативность, стратегическое планирование, коммуникативность и управление коллективом. Также установлено, что рациональное распределение времени является важным фактором повышения эффективности педагогической деятельности и профессионального развития. Сделан вывод о том, что модель развития лидерства, основанная на тайм-менеджменте, способствует повышению качества педагогического образования.

**Ключевые слова:** тайм-менеджмент, лидерство, будущий учитель, компетенция, управление временем, педагогическая деятельность, коммуникативность, стратегическое планирование, профессиональное развитие, рефлексия, мотивация, качество образования.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini mukammal biluvchi mutaxassis, balki jamoani boshqara oladigan, tashabbuskor, strategik fikrlovchi va samarali faoliyat tashkil eta oladigan lider sifatida ham namoyon bo'lishi zarur. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida vaqtni to'g'ri boshqarish, faoliyatni rejalashtirish va ustuvor vazifalarni belgilash pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biridir. Ayniqsa, taym menejment texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning tashkiliy qobiliyatlari, mas'uliyati va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning liderlik fazilatlarini taym menejment asosida rivojlantirishning nazariy-metodik jihatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida liderlik va taym menejment tushunchalarining mazmunini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini asoslash hamda bo'lajak pedagoglarda liderlik kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish belgilandi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Taym menejment inson faoliyatini samarali tashkil etish, vaqt resurslaridan oqilona foydalanish va ustuvor vazifalarni belgilashga qaratilgan boshqaruv texnologiyasi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik faoliyatda vaqtni to'g'ri taqsimlash o'qituvchining kasbiy samaradorligini oshirish, stress holatlarini kamaytirish hamda ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirishda taym menejmentning ahamiyati ortib bormoqda.

Liderlik fazilatlarini pedagogning jamoani boshqarish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, kommunikativ munosabatlarni samarali tashkil etish hamda innovatsion g'oyalarni ilgari surish kompetensiyalarini o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, taym menejment liderlik kompetensiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Vaqtni to'g'ri rejalashtira oladigan pedagog o'z faoliyatini samarali tashkil etadi, jamoada ijobiy muhit yaratadi va ta'lim jarayonining sifatini oshiradi.

Mazkur muammo bo'yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Jumladan, S. Kovi, P. Druker, B. Treysi kabi olimlar vaqtni boshqarish va shaxsiy samaradorlik masalalarini tadqiq qilgan bo'lsalar, pedagogik liderlik bo'yicha J. Kotter, M. Fullan va boshqa tadqiqotchilar ilmiy qarashlarni ilgari surganlar.

Mahalliy olimlardan B.X. Xodjayev, N.A. Muslimov va O'. Tolipovlarning ilmiy ishlari pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili, qiyosiy-tahliliy metod, tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali taym menejmentning liderlik fazilatlarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar, xususan, vaqtni rejalashtirish, faoliyatni tashkil etish, ustuvor vazifalarni belgilash va shaxsiy samaradorlikni oshirish bilan bog'liq jihatlar tizimli ravishda o'rganildi. Olingan natijalar asosida taym menejment texnologiyalarining bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, taym menejment asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyat bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, vaqtni rejalashtirish va faoliyatni maqsadli tashkil etish bo'lajak pedagoglarda mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik hamda strategik fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tahlillar asosida liderlik fazilatlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi quyidagi omillar aniqlandi:

1-jadval: **Liderlik fazilatlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi quyidagi omillar**

Omillar	Mazmuni	Natijasi
<b>Vaqtni rejalashtirish</b>	Faoliyatni tartibli tashkil etish	Samaradorlik oshadi
<b>Maqsad qo'yish</b>	Ustuvor vazifalarni aniqlash	Motivatsiya kuchayadi
<b>Kommunikativlik</b>	Jamoa bilan samarali ishlash	Liderlik rivojlanadi
<b>Refleksiya</b>	O'z faoliyatini tahlil qilish	Kasbiy o'sish ta'minlanadi

Tadqiqot davomida taym menejment texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga moslashuvchanligini oshirishi ham aniqlandi. Xususan, kunlik rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash, "SMART" maqsadlar texnologiyasi hamda refleksiv tahlil usullaridan foydalanish liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi.



Shuningdek, raqamli texnologiyalar va elektron rejalashtirish platformalaridan foydalanish pedagogik faoliyatni tizimli tashkil etishga yordam beradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini boshqarish, jamoa bilan ishlash hamda innovatsion faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish pedagogik ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Samarali vaqt boshqaruvi bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, mas'uliyat va tashabbuskorlikni kuchaytirish hamda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, taym menejment texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning liderlik salohiyatini rivojlantirish, strategik fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Kelgusida mazkur yo'nalishda innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda elektron monitoring tizimlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Covey S. The 7 Habits of Highly Effective People. – New York: Free Press, 1989. – P. 381.
2. Tracy B. Time Management. – New York: AMACOM, 2014. – P. 256.
3. Drucker P. The Effective Executive. – New York: Harper Business, 2006. – P. 208.
4. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – London: Routledge, 2007. – P. 352.
5. Kotter J. Leading Change. – Boston: Harvard Business Review Press, 2012. – P. 210.
6. Xodjaye B.X. Pedagogik aksiologiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2012. – B. 168.
7. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2016. – B. 220.
8. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – B. 260.
9. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – B. 180.
10. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'qituvchi, 2003. – B. 174.
11. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006. – B. 192.
12. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim sifati menejmenti. – T.: Tafakkur, 2015. – B. 210.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.